






## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-iyunida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 16 612,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 3,9 % ga kamaydi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 114,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,5 % ga yetdi.



### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- iyun	2020- yil yanvar- iyun	
	<b>I. YaHM</b>	<b>15 100,7</b>	<b>16 612,9</b>	<b>96,1</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 612,8	16 253,8	96,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	487,9	359,1	92,9
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>14 612,8</b>	<b>16 253,8</b>	<b>96,3</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 629,5	6 303,9	97,5
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 572,6</b>	<b>3 804,7</b>	<b>90,9</b>
	sanoat	2 493,1	2 583,7	86,4
	qurilish	1 079,5	1 221,0	101,4
	<b>Xizmatlar</b>	<b>5 410,7</b>	<b>6 145,2</b>	<b>98,5</b>

		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- iyun	2020- yil yanvar- iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 121,5	1 231,7	98,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 089,1	1 127,9	95,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 200,1	3 758,6	99,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 266,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 5,8 % ga kamaygan.



**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 0,3 % punktga koʻpaydi va hisobot yilida 38,8 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmogʻining ulushi 15,9 % dan iborat boʻlib, 1,2 % punktga kamaydi, qurilishniki esa 0,1 % punktga oshdi va 7,5 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 37,8 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,8 % punktga oshdi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha YaHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	96,8	97,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	2,2
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi</b>	<b>38,5</b>	<b>38,8</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)</b>	<b>24,5</b>	<b>23,4</b>
	sanoat	17,1	15,9
	qurilish	7,4	7,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>37,0</b>	<b>37,8</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	7,7	7,6


		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,5	6,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,8	23,3





**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jami ga nisbatan % da)**



O`sinh sur`ati qurilishda – 101,4 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 7,5 %) ni tashkil etdi. Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, sanoat va xizmatlar sohasida kamayish holatlari kuzatildi va mos ravishda 97,5 % (mazkur tarmoqning YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 38,8 %), 86,4 % (15,9 %) va 98,5 % ni (37,8%)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar (98,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa (95,3 %) va boshqa xizmat tarmoqlarida (99,7 %) kamayish holatlari kuzatildi.




**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo`yicha mutlaq o`sinh sur`atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning qurilish tarmog'i YaHMning o'sishiga 0,1 f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasi mos ravishda - 0,9 f.p., - 2,3 f.p. va - 0,6 f.p. salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YaHM - 0,2 f.p. ga kamaydi.



**2020- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'lishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2020- yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 114,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 119,9 % va xizmatda – 115,3 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

